

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”**  
**KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK:330.3:33M(575.1)*

**SULAYMONOV SHOIRBEK BAHODIR O'G'LI**

**GLOBAL SHAROITDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY**  
**INVESTITSIYALARNI JALB ETISH IMKONIYATLARI**

**70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**  
**mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**  
**dots. Kasimov A.**


**Toshkent – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki  
himoyadan o'tgan.

47-sonli bayonnoma «2» 05 2023 y.

Ilmiy rahbar:

A.Kasimov



imzo

22.05.2023

sana

Magistr:

Sh.Sulaymonov




imzo

22.05.2023

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "22" 05  
№ 1/16 raqami bilan ro'yxatga olingan

**"Himoyaga ruxsat etiladi"**

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasii  
mudiri dots. I.Xotamov 

"8" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida  
2023 yil "23" may soat "10<sup>00</sup>" da bo'ladi

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, ayniqsa hududlarning mavjud salohiyati, mehnat resurslari va mineral xomashyo bazasini inobatga olgan holda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobiga ish o'rinlarini yaratish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, global sharoitda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari oshirishda investitsion jozibadorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinib, bu borada amalga oshirilayotgan chora tadbirlar samarasini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya, investitsiya samaradorligi, investitsion jozibadorlik.

## ANNOTATION

In this master's thesis, the attraction of foreign direct investments to the economy of our republic, especially the work at the expense of launching new production capacities by attracting foreign investments widely, taking into account the existing potential of the regions, labor resources and mineral raw materials base. A scientific proposal and practical recommendations on the creation of new products, expansion of export opportunities have been developed.

Also, the priority directions of increasing the investment attractiveness in the global environment for attracting foreign direct investments were analyzed, and practical recommendations were developed to increase the effectiveness of the measures implemented in this regard.

**Key words:** foreign direct investments, investment, investment efficiency, investment attractiveness.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	3
Mundarija .....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....	8
Keltirilgan qisqartmalar .....	9
<b>KIRISH</b> .....	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	11
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari .....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	13
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti .....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi .....	14
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	14
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	16
1.1. Kirish .....	16
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....	18
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....	27
1.4. Xulosa .....	35
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	37
2.1. Tadqiqot dizayni .....	37
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....	37
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....	37

2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....	38
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi .....	38
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	39
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR .....</b>	<b>40</b>
3.1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi va investitsion jozibadorlikning mamlakatimiz hududlari bo'yicha tahlili .....	40
3.2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit va uni shakllantirish yo'llari .....	45
3.3. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning xorij tajribalari va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'nalishlari .....	50
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....	65
<b>XULOSA .....</b>	<b>67</b>
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi .....	67
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....	73
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....	75
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>77</b>

## KIRISH

Ma'lumki, islohotlar va yangilanishlar o'z-o'zicha amaliyotga tadbiiq qilinganda oxirgi ya'ni yakuniy samara kutilganidek bo'lmasligi yoki kutilgan natijaga keyinroq erishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun, yangi iqtisodiy tizim va munosabatlarning qaror topishida barcha tarmoqlar kerakli darajada hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlab boriladi, bu olib borilayotgan islohotlarning samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'ziga xos turtki bo'ldi deb hisoblanadi. Bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishni tartibga solish borasida ko'plab yangi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qabul qilishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida oltinchi yo'nalish sifatida "Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz" deb belgilangan<sup>1</sup>. Jumladan:

Biz so'nggi olti yilda investitsiyalar hajmini yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshirishga erishdik.

Kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinadi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo'ladi. Jumladan, umumiy qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushiramiz va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanadi.

Misol uchun, "Yoshlik" mis konini o'zlashtirishning birinchi bosqichi yakuniga yetkazilib, 60 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-misni boyitish fabrikasi ishga tushadi. Bu orqali Olmaliq kombinatining rudani qayta ishlash quvvati hozirgi 40 milliondan 100 million tonnaga yetadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi. 22.12.2022. <https://review.uz>